

**NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/29.08.2023.K/T.66.02 ILMIY KENGASH**

---

**NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

**DAVLYATOV AZIZBEK ABDIKASIMOVICH**

**OLXO'RI DANAKLARIDAN PRESSLAB MOY OLIH  
TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH**

**02.00.17 - Qishloq xo'jalik va oziq-ovqat mahsulotlariga ishlov berish, saqlash hamda  
qayta ishlash texnologiyalari va biotexnologiyalari**

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**  
**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**  
**Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)**

**Davlyatov Azizbek Abdikasimovich**

Olxo'ri danaklaridan presslab moy olish texnologiyasini ishlab chiqish ..... 3

**Давлятов Азизбек Абдикасимович**

Разработка технологии получения масла прессованием сливовых косточек ..... 21

**Davlyatov Azizbek**

Development of a technology for obtaining oil by pressing plum kernels ..... 39

**E'lon qilingan ishlar ro'uxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 42

**NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/29.08.2023.K/T.66.02 ILMIY KENGASH**

---

**NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

**DAVLYATOV AZIZBEK ABDIKASIMOVICH**

**OLXO'RI DANAKLARIDAN PRESSLAB MOY OLIH  
TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH**

**02.00.17 - Qishloq xo'jalik va oziq-ovqat mahsulotlariga ishlov berish, saqlash hamda  
qayta ishlash texnologiyalari va biotexnologiyalari**

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/T3044 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Namangan davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.nammti.uz](http://www.nammti.uz)) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim tarmog'iga ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

|                            |   |
|----------------------------|---|
| <b>Ilmiy rahbar:</b>       | <b>Xudayberdiyev Absalom Abdurasulovich</b><br>texnika fanlari doktori, professor   |
| <b>Rasmiy opponentlar:</b> | <b>Abduraximov Axror Anvarovich</b><br>texnika fanlari doktori, professor<br><b>Narziyev Mirzo Sayidovich</b><br>texnika fanlari nomzodi, dotsent |
| <b>Yetakchi tashkilot:</b> | <b>Guliston davlat universiteti</b>   |

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat texnika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/29.08.2023.K/T.66.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «12» iyul soat 12<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 160115, Namangan shahri, Kosonsoy ko'chasi, 7. Tel.: (69) 225-10-07, faks: (69) 228-76-75, e-mail: [niei\\_info@edu.uz](mailto:niei_info@edu.uz), Namangan davlat texnika universiteti, 6-bino, 1-qavat, Ilmiy kengash xonasi, 303- xona.

Dissertatsiya bilan Namangan davlat texnika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 33-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 160115, Namangan sh., Kosonsoy ko'chasi, 7. Tel.: (99869) 225-10-07.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «27» iyun kuni tarqatildi.  
(2025-yil «27» iyundagi № 6-raqamli reestr bayonnomasi)

**O.K. Ergashev**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, kimyo fanlari doktori, professor

**D.Sh. Sherqo'ziyev**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, texnika fanlari doktori, professor

**A.M. Xamdamov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, texnika fanlari doktori, dotsent

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati.** Dunyoda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, yangi turdagi mahsulotlar va texnologiyalar ishlab chiqish oziq-ovqat sanoatining dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda. Shu sababdan, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va ularni qayta ishlash hajmini oshirish, tarkibida inson salomatligiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi makro- va mikroelementlar, uglevodlar, oqsillar va vitaminlarga boy bo'lgan yuqori ozuqaviy qiymatga ega oziq-ovqat mahsulotlari assortimentini kengaytirish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Jahonda bugungi kunda oziq-ovqat mahsulotlari tayyorlashda yog'-moy mahsulotlari assortimentini kengaytirish bo'yicha qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada, mevalarni qayta ishlash korxonalarida hosil bo'luvchi texnologik chiqitlar, jumladan olxo'ri meva danaklaridan olinadigan moyni fizik-kimyoviy tarkibini tadqiq qilish, noan'anaviy xomashyolardan o'simlik moyi olish texnologiyalarini yaratish, moyning sifatini yaxshilash va uni qo'llanish sohasini kengaytirishga yo'naltirilgan ilmiy-amaliy izlanishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda ham so'nggi yillarda yog'-moy sanoatini izchil rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan islohotlar tufayli an'anaviy moyli xomashyolarni qayta ishlash bilan bir qatorda, noan'anaviy sanoat xomashyosi sanaluvchi mahalliy mevalar danaklaridan ham sifatli moy ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish borasida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Buning natijasida bugunki kunda mamlakatimizda katta hajmlarda yetishtiriladigan o'rik, shaftoli, olxo'ri, olisha, gilos va boshqa turdagi mevalar danaklarini qayta ishlashga ixtisoslashgan 200 dan ortiq kichik va o'rta korxonalar faoliyat yuritmoqda. O'zbekiston Respublikasining «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini «Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash» deb nomlangan uchinchi yo'nalishida «Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlashga qaratilgan sanoat siyosatini amalga oshirishni davom ettirish, yalpi ichki mahsulotda sanoatning ulushini oshirish va sanoat ishlab chiqarish hajmini 1,4 barobarga oshirish...»<sup>1</sup> kabi muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada, korxonalarda qo'llanilayotgan mahsulot ishlab chiqarish texnologiyalarini vatanimiz olimlarining ilmiy ishlanmalari asosida takomillashtirish bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlar muxim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli «2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi» to'g'risidagi Farmoni, 2020 yil 10 noyabrdagi PQ-4887- sonli «Aholining sog'lom ovqatlanishini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida», 2020 yil 9 sentyabrdagi PQ-4821- sonli «Respublika oziq-ovqat sanoatini jadal rivojlantirish hamda aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'laqonli ta'minlashga doir qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida», 2019 yil 23 oktyabrdagi PQ-5853- sonli

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yilning 28 yanvardagi PF-60 «2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida» gi Farmoni

«O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida» va 2019 yil 16 yanvardagi PQ-4118- sonli «Yog‘-moy tarmog‘ini yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora tadbirlar va sohani boshqarishda bozor mexanizmini joriy etish to‘g‘risida»gi Qarorlari hamda mazkur soha faoliyatiga tegishli me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning V. «Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** O‘simlik moyi ishlab chiqarish texnologiyalarini takomillashtirish, texnologik jarayonlarning nazariy-amaliy asoslarini rivojlantirish, an‘anaviy va noan‘anaviy moyli xomashyolar va o‘simlik moylarining fizik-kimyoviy xossalarini o‘rganish hamda olxo‘ri moyi tarkibidagi komponentlarni aniqlash bo‘yicha dunyoda M. Ivan, Büşra Çakaloğlu, Mustafayev S.K, Anvar A., Feliks A., Lebedev Ye.N., Kas‘yanov G.I., Benjakul S., Balezn S.A., Sayenko A.Yu., Marshalkin M.F., Ushakova L.S., Kudashkina N.V., Мещерякова С.А., respublikamizda esa Asqarov I.R., Vapoyev X.M., Normaxmatov N.R., Dehqonov R.S., Abduraximov A.A., Abduraximov S.A., Qodirov Yu.Q., Majidov K.X., Serkayev Q.P., Ro‘ziboyev A.T., Aminov S.N., Maxmudov T.M., G‘ofurov K.X., Jurayev X.F., Xakimova Z.A. va boshqalar keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar olib borishgan.

Ular tomonidan moyli o‘simlik xomashyolarini qayta ishlash texnologiyalarini takomillashtirish bo‘yicha ishlab chiqilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar sanoat amaliyotiga joriy etilgan. Ammo noan‘anaviy o‘simlik xomashyolaridan, xususan meva danaklaridan moy olish bo‘yicha tadqiqotlar ilk bosqichda bo‘lib, bu yo‘nalishdagi qator texnik va texnologik muammolar hozircha o‘z yechimini to‘liq topmagan.

Shuning bilan birga, hozirda olxo‘ri danaklari, mag‘zi va moyining fizik-kimyoviy xossalarini o‘rganish, mag‘izdan presslab moy ajratib olish jarayonlarini kompleks tadqiq etish, olxo‘ri moyi tarkibidan zararli komponentlarni ajratib olish, moyni qo‘llanilish sohaslarini aniqlashtirish, olxo‘ri danagi mag‘zidan moy olish texnologik tizimlarini ishlab chiqish, texnologik jarayonlarni modellashtirish va optimallashtirish hamda sanoat korxonalarida ekologik toza olxo‘ri moyi ishlab chiqarishni tashkil etish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish yo‘nalishlarida izlanishlar olib borilmoqda.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Namangan muhandislik-texnologiya institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq, №9/02-20/2023 - raqamli “Olxo‘ri danaklaridan presslab moy olish texnologiyasini ishlab chiqish” mavzusida Namangan viloyati Yuksalish kichik sanoat zonasida danakli mevalarni quritish bo‘yicha faoliyat yurituvchi “Nateco impex” MChJ korxonasi bilan tuzilgan xo‘jalik shartnomasi (2023-2025 y.)

doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** olxo'ri danaklaridan presslab moy olish texnologiyasini ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

noan'anaviy moyli xomashyolar, xususan meva danaklari mag'zidan presslab moy olish texnologiyasi nazariyasi va amaliyotini tahlil qilish;

olxo'ri danagining fizik-mexanik xossalari va chaqilmani fraksiyalarga ajratish jarayonlarini tadqiq etish;

olxo'ri mag'zining fizik-kimyoviy xossa ko'rsatkichlarini aniqlash, uning anatomik va mikroskopik tuzilishini tadqiq etish;

olxo'ri mag'zidan presslab moy olish jarayonlarini eksperimental tadqiq etish; presslash paytida mag'zidan ajratib olinadigan moy miqdoriga texnologik omillarning ta'sirini o'rganish;

olxo'ri moyining sifat ko'rsatkichlarini tahlil qilish;

amigdalindan tozalangan olxo'ri moyi olish texnologiyasini ishlab chiqish;

olxo'ri moyi ishlab chiqarishda hosil bo'luvchi texnologik chiqitlardan samarali foydalanish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

asosiy texnologik bosqichlarning moddiy balansi hisoblarini bajarish;

olxo'ri mag'zidan presslab moy olish texnologiyasini sanoatga joriy etishning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarini asoslash.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida Berton, Vengerka va Ispolin navli mahalliy olxo'ri mevalarining danaklari, mag'zi, moyi va moy tarkibidan ajratib olinadigan amigdalin glikozidi olingan.

**Tadqiqotning predmetini** olxo'ri mag'zidan issiq va sovuq presslash yo'li bilan moy ajratib olish usullari, texnologik jarayonlari va jihozlari tashkil etgan.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiya ishini bajarishda xomashyo va tayyor mahsulotning tarkibi va sifat ko'rsatkichlarini aniqlashning umumqabul qilingan fizik-kimyoviy, maxsus va organoleptik usublari va yuqori samarali suyuqlik xromatografiya (YUSSX), plazma mass-spektrometriya (NEXION 2000) vositalaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

mahalliy olxo'ri navlari mag'zi va moyining fizik-kimyoviy, reologik va termofizik xossa ko'rsatkichlari aniqlangan;

olxo'ri mag'zini suv bug'i bilan namlash natijasida uning yadrosida zich joylashgan moylarning 83,21 % qismi uning sirt yuzasi tomon siljishi aniqlangan;

olxo'ri mag'zidan presslab moy olish unumdorligiga  $a$  ta'sir etuvchi texnologik parametrlar - mag'iz namligi  $w$ , presslash harorati  $t$  va davomiyligi  $\tau$  ning optimal qiymatlari aniqlangan: sovuq presslash uslubida  $w = 11,5$  %,  $t = 45$  °C va  $\tau = 60$  min bo'lganda  $a = 52,9$  %; issiq presslash uslubida esa  $w = 11,5$  %,  $t = 80$  °C va  $\tau = 60$  min bo'lganda  $a = 55,3$  %; ushbu texnologik parametrlar o'rtasidagi bog'liqliklarni ifodalovchi empirik tenglamalar olingan;

olxo'ri moyini suv bilan ekstraksiyalash jarayonida uning tarkibidagi amigdalin glikozidi miqdori 1,59 % dan 0,09 % gacha kamayishi aniqlangan;

amigdalin glikozididan tozalangan olxo'ri moyi olish texnologiyasi ishlab chiqilgan.

### **Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

mahalliy olxo‘ri danaklari, texnologik chiqindilar, mag‘zi va moyining fizik-kimyoviy, reologik va termofizik xossalari hamda moy tarkibidagi makro- va mikroelementlar, vitaminlar miqdorlari va yog‘ kislota tarkibi bo‘yicha ma‘lumotlar bazasi yaratilgan;

olxo‘ri danagidan moy olish texnologik bosqichlarining moddiy balansi hisoblarini amalga oshirilgan;

olxo‘ri danagi mag‘zidan presslab moy olish jarayonlarining texnologik tizimi ishlab chiqilgan;

olxo‘ri danagi mag‘zidan presslab moy olish jarayonlarida hosil bo‘luvchi texnologik chiqindilardan samarali foydalanish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** nazariy natijalarni muallifning eksperimental tadqiqotlari natijalari, adabiyotlarda keltirilgan tajribaviy ma‘lumotlar va sanoat sinovi natijalari bilan o‘zaro mosligi hamda olxo‘ri danagi, kunjarasi va moyining sifat ko‘rsatkichlarini aniqlashda zamonaviy fizik-kimyoviy tahlil usullari (IK-spektroskopiya, kalorimetriya, GX-spektr) va yuqori aniqlikda ishlovchi sertifikatlangan uskunalaridan foydalanilganligi bilan tasdiqlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati mahalliy olxo‘ri moyining fizik-kimyoviy tarkibi va ozuqaviy qiymati aniqlanganligi, olxo‘ri mag‘zidan moy olish unumdorligiga mag‘iz namligi, uni presslash harorati va davomiyligining ta‘siri aniqlanganligi, ushbu texnologik parametrlarning optimal qiymatlari aniqlanganligi va amigdalin glikozididan tozalangan olxo‘ri moyi olish texnologiyasi ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olxo‘ri danaklari, texnologik chiqindilar, mag‘zi va moyining xossa ko‘rsatkichlari, olxo‘ri moyi tarkibidagi makro- va mikroelementlar, vitaminlar miqdori va yog‘ kislotalari tarkibini aniqlanganligi, olxo‘ri danagi mag‘zidan moy ajratib olish bosqichlarining texnologik hisoblarini bajarilganligi, olxo‘ri danagi mag‘zidan presslab moy olish texnologiyasi va uni amalga oshirishning mashina-apparaturaviy tizimi ishlab chiqilganligi hamda texnologik chiqindilardan samarali foydalanish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilganligi bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Olxo‘ri danaklaridan presslab moy olish texnologiyasini ishlab chiqish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

olxo‘ri danagi mag‘zidan presslash usulida moy olish texnologiyasi Farg‘ona viloyatidagi “Muslim Oil” MCHJ va “Uchqo‘rg‘on-yog‘” AJ korxonalarining forpress sexlarida sanoat sinovlaridan o‘tkazilgan (O‘zbekiston Respublikasi yog‘- moy sanoati korxonalari Uyushmasining 2024 yil 13 sentyabrdagi KC/3-306- sonli ma‘lumotnomasi). Natijada optimal namligi  $w = 11,5 \%$  bo‘lgan mag‘izdan  $t = 45$  °C haroratda presslab  $a = 47,9 \%$  miqdorda sifat ko‘rsatkichlari bo‘yicha Davlat standartlari talablariga to‘liq mos keluvchi olxo‘ri moyi olish imkoniyati yaratilgan;

olxo‘ri danagi mag‘zidan presslash usulida moy olish texnologiyasi va moy tarkibidan amigdalin moddasini ajratib olish uslubi “Uchqo‘rg‘on-yog‘” AJ korxonasida ishlab chiqarishga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi yog‘- moy sanoati korxonalari Uyushmasining 2024 yil 13 sentyabrdagi KC/3-306- sonli ma‘lumotnomasi). Natijada tarkibida amigdalin miqdori 1,59 % dan 0,09 % gacha

kamaytirilgan, to‘yingan va to‘yinmagan yog‘ kislotalari nisbati 38,3:61,7 bo‘lgan, fizik-kimyoviy va organoleptik ko‘rsatkichlari bo‘yicha Davlat standartlari talablariga to‘liq javob beruvchi olxo‘ri moyi olishga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur ilmiy tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tgan va ma‘qullangan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 25 ta ilmiy ish chop ettirilgan, shundan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari-ning asosiy ilmiy natijalarini chop ettirish uchun tavsiya etgan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola 5 ta xorijiy va 5 ta respublika jurnallarida chop etilgan, EHM uchun dastur yaratilgan (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining rasmiy ro‘yhatdan o‘tkazilganlik to‘g‘risidagi Guvohnomasi 43921,14.11.2024).

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 105 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish qismida** dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotni respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, uning maqsadi, vazifalari, obekti, predmeti va usullari tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslanib, ularning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Meva danaklaridan ratsional foydalanish va moy olish texnologiyalari**” nomli birinchi bobida meva danaklarini qayta ishlash texnologiyalarining rivojlanish tendensiyalari, meva danaklari mag‘zidan olingan moylarning ahamiyati, ularning biologik va fizik-kimyoviy xossalari, danak moylari va hosil bo‘ladigan ikkilamchi mahsulotlarni qo‘llanish sohalari va ko‘lamining bugungi kundagi holati tahlil qilingan. Shu asosda meva danaklari mag‘zidan moy ishlab chiqarish texnologiyalari asosini yaratish oziq-ovqat sanoatidagi dolzarb muammoligi va uning yechimini topish katta ilmiy-amaliy ahamiyatga ega ekanligi asoslangan. Ushbu maqsaddan kelib chiqib, dissertatsiya tadqiqotining maqsadi va vazifalari shakllantirilgan.

Dissertatsiyaning “**Xomashyo va tayyor mahsulotlar sifatini tahlil qilish uslublari**” deb nomlangan ikkinchi bobida olxo‘ri danaklarining mexanik mustahkamligi, chaqilma (rushanka) fraksiyalarining ratsional parametrlari, olxo‘ri mag‘zining fizik-mexanik ko‘rsatkichlari va olxo‘ri moyining asosiy fizik-kimyoviy xossa ko‘rsatkichlarini aniqlash uslublari hamda qo‘llanilgan laboratoriya jihozlarining tavsiflari bayon etilgan.

Tadqiqotlar paytida foydalanilgan olxo‘ri danagining mexanik mustahkamligini aniqlovchi U-Test Material Testing Equipment uskunasi, “Grain Mill Grinder” mashinasi va Akita JP 800 rusumli moy pressining texnik tavsiflari


yoritilgan. Moyning fizik-kimyoviy ko'rsatkichlarini aniqlashda qo'llanilgan ISPMS NEXION-2000 mass-spektrometri, Agilent Technologies 6890 N markali gaz-suyuqlik xromatografi, yod shkalasi, "HAAKE Viscotester 1 plus" uskunasi, "Anton Paar DMA-4500" uskunasi va GJX-spektri haqida ma'lumotlar keltirilgan. Olxo'ri mag'zidan moy olish va uning tarkibidan amigdalin glikozidini ajratish jarayonlarida foydalanilgan jihozlarda tajribalar o'tkazish metodikalari va tajriba natijalarini qayta ishlash uslublari yoritilgan.

**"Olxo'ri danaklaridan presslab moy olish bo'yicha eksperimental tadqiqotlar natijalari muxokamasi"** deb nomlangan uchinchi bobida olxo'ri danaklarini chaqish va mag'zini ajratish jarayonlarini tadqiq qilish, olxo'ri mag'zini anatomik, mikroskopik va fizik-kimyoviy tahlili natijalari, presslab moy olish jarayoniga mag'izning namligi, presslash harorati va davomiyligi ta'sirini o'rganish hamda tajriba natijalarini matematik qayta ishlash natijalari keltirilgan.

Tajribalarda Vengerka navli olxo'rining 10 dona danagini umumiy og'irligi 56,327 g ni, shundan 43,798 g (77,75 %) po'choq, mag'izlar esa 12,529 g (22.24 %) tashkil etishi aniqlandi. Kelgusi tadqiqotlarimizda danak chaqish mashinasida olxo'ri danagi chaqilib, mag'iz aralashmasining fraksion tarkibi o'rganildi. Mag'iz aralashmasidagi butun mag'izlarning o'rtacha miqdori 91,2 % ni, singan mag'izlar ulushi esa 8,732 % ni tashkil etdi.


Mag'izlarni fraksiyalarga ajratishdan asosiy maqsad shnekli pressda moy olish uchun optimal darajada yaroqli bo'lgan fraksiyalarni o'lchamlari bo'yicha tanlab olishdan iborat. Tajribalar o'lchamlari 0,5 mm dan 3,50 mm gacha bo'lgan elaklar bilan butlangan zamonaviy laboratoriya jihozida o'tkazildi. Tajribalar natijalariga ko'ra teshiklari o'lchami 1,90 mm bo'lgan elak yuzasida qoladigan mag'iz fraksiyalari moy ajratib olish uchun optimal o'lchamga ega ekanligi aniqlandi.

Olxo'ri mag'zidan presslab moy ajratish jarayonining samarali rejimlarini aniqlash maqsadida mag'izni anatomik tuzilishi, mikroskopik tasvirlari va fizik-kimyoviy xossalari o'rganildi. Olxo'ri mag'zi tarkibidagi moylarning taqsimlanish tartibini o'rganish maqsadida 5,6 % namlikdagi mag'iz namunalari tayyorlanib, optik binokulyar mikroskop ostida ko'rildi va mag'iz tarkibidagi moyning mikroskopik tasvirlari olindi (1-rasm).




a) mag'iz markazidagi yog' zarrachalari      b) yadroning chetidagi yog' zarrachalari  
1-rasm. Olxo'ri mag'zidagi moy qatlamining mikroskopik tasvirlari

Tasvirlardan moy zarrachalari mag'iz tarkibida hajman bir tekisda taqsimlanmaganligi va ular asosan yadro markazida zich holatda joylashganligi ko'rinadi. Zich joylashgan strukturadagi moylarni presslab to'liq ajratib olib bo'lmisligi va ularning katta qismi kunjara tarkibida qolib ketishi ma'lum. Shu sababdan, zich holatdagi moyning mag'izdagi joylashuv tartibini o'zgartirish uchun mag'izga suv bug'i bilan ishlov berildi. Suv bug'i bilan turlicha darajada namlangan mag'izlar takroran mikroskopik kuzatuvdan o'tkazildi. Tajribalarda namligi 11,5 % bo'lgan namunada mag'iz markazidagi moy zarralari, boshqa mag'iz namunalaridagi moy holatiga nisbatan, issiqlik va namlik ta'siri ostida tarqoq holatga o'tganligi kuzatildi (2-rasm). Mag'izning mikroskopik tasvirlaridan suv bug'i ta'siri ostida yadro tarkibidagi moyning 83,21 % qismi aktiv holatga o'tganini ko'rish mumkin. Bu esa presslanayotgan mag'iz tarkibidagi moyni maksimal darajada siqib chiqarishda issiqlik va namlikning optimal qiymatlari muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.



**a) Issiqlik va namlik ta'siri ostidagi yog' zarrachalarining surilishini mikroskopik tasviri**



**b) yog' zarralarining kuzatuv nuqtalari**

**2-rasm. Olxo'ri mag'izidagi yog' qatlamlari holatiga haroratning ta'siri**

Kelgusi tadqiqotlarimizda olxo'ri mag'zini "issiq" va "sovuq" presslash usullarida ajratib olinadigan moy miqdoriga texnologik omillar - mag'izning namligi, uni presslash harorati va davomiyligining ta'siri o'rganildi.

O'tkazilgan tajribalar natijalari quyidagi 1 va 2- jadvallarda keltirilgan.

**1-jadval**

**Sovuq presslash rejimida olinadigan moy miqdoriga mag'izni namligi, presslash harorati va davomiyligining ta'siri**

| Mag'iz namligi<br>$w, \%$ | Harorat,<br>$t, ^\circ\text{C}$ | Presslash davomiyligi $\tau$ ,<br>min | Moyni chiqish miqdori<br>$a, \%$ |
|---------------------------|---------------------------------|---------------------------------------|----------------------------------|
| 5,4                       | 30                              | 20                                    | 39,8                             |
| 7,2                       | 30                              | 30                                    | 42,9                             |
| 8,6                       | 35                              | 40                                    | 44,7                             |
| 9,4                       | 35                              | 50                                    | 47,8                             |
| 10,8                      | 40                              | 55                                    | 50,6                             |
| 11,5                      | 45                              | 60                                    | 52,9                             |
| 12,1                      | 45                              | 70                                    | 50,8                             |
| 13,5                      | 45                              | 80                                    | 42,5                             |


**2-jadval**

**Issiq presslash rejimida olinadigan moy miqdoriga mag'izni namligi, presslash harorati va davomiyligining ta'siri**


| Mag'iz namligi<br>$w, \%$ | Harorat, $t, ^\circ\text{C}$ | Presslash davomiyligi $\tau$ ,<br>min | Moyni chiqish<br>miqdori $a, \%$ |
|---------------------------|------------------------------|---------------------------------------|----------------------------------|
| 5,4                       | 50                           | 20                                    | 41,8                             |
| 7,2                       | 60                           | 30                                    | 43,4                             |
| 8,6                       | 65                           | 40                                    | 47,7                             |
| 9,4                       | 70                           | 50                                    | 51,5                             |
| 10,8                      | 75                           | 55                                    | 52,6                             |
| 11,5                      | 80                           | 60                                    | 55,3                             |
| 12,1                      | 80                           | 70                                    | 51,7                             |
| 13,5                      | 80                           | 80                                    | 49,8                             |

Ushbu jadvallarda keltirilgan materiallardan ko'rinadiki, "sovuq" presslash uslubida mag'izning namligi  $w = 11,5 \%$ , uni presslash harorati  $t = 45 ^\circ\text{C}$  va davomiyligi  $\tau = 60$  min bo'lganda olxo'ri mag'zidan maksimal miqdorda  $a = 52,9 \%$  moy ajratib olish mumkin bo'ladi. "Issiq" uslubda presslash jarayonining quyidagi rejimlarida  $w = 11,5 \%$ ,  $t = 80 ^\circ\text{C}$  va  $\tau = 60$  min ajratib olinadigan moyning maksimal miqdori  $a = 55,3 \%$ -ni tashkil etadi.

Olxo'ri mag'zini presslash jarayoniga texnologik omillar ta'sirini o'rganish bo'yicha o'tkazilgan tajriba natijalarini matematik qayta ishlash asosida ajratib olinayotgan moy miqdori, mag'iz harorati, uning namligi va presslash davomiyligi o'rtasidagi bog'liqliklarni ifodalovchi empirik tenglamalar olindi. Ushbu tenglamalardan foydalanib bajarilgan hisoblashlar asosida mazkur jarayonning ishchi grafiklari qurildi (3 va 4-rasm).



**3-rasm. Sovuq usulda ajraladigan moy miqdorini  $a$ ,  $w$ ,  $t$  va  $\tau$  qiymatlaridan bog'liq o'zgarishi**



**4-rasm. Issiq usulda ajraladigan moy miqdorini  $a$ ,  $w$ ,  $t$  va  $\tau$  qiymatlaridan bog'liq o'zgarishi**

Tajribalar natijasiga ko'ra olxo'ri mag'zini "sovuq" presslash usulida undan moy chiqish  $a$  miqdorining rasional chegaralari belgilandi: mag'izni namligi  $w = 5,4 \div 13,5$  % bo'lganda  $a = 37,3 \div 41,7$  %, presslash harorati  $t = 30 \div 80$  °C bo'lganda  $a = 38,4 \div 55,3$  % va presslash davomiyligi  $\tau = 20 \div 160$  min bo'lganda  $a = 39,8 \div 51,3$  %.

Dissertatsiyaning "Olxo'ri danaklari mag'zidan presslab moy olish texnologiyasining sanoat sinovi natijalari va texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari" deb nomlangan to'rtinchi bobida olxo'ri moyining fizik-kimyoviy xossa ko'rsatkichlari, yog' kislota tarkibi va toksikologik tahlili natijalari, olxo'ri danaklarini qayta ishlash bosqichlarining moddiy balansi hisoblari, olxo'ri danaklari mag'zidan presslab moy olish texnologiyasi va uni amalga oshirishning mashina-

apparaturaviy tizimi tavsifi, texnologik chiqindilardan samarali foydalanish bo'yicha tavsiyalar hamda taklif etilayotgan texnologiyani ishlab chiqarishga joriy etishdan kutiladigan iqtisodiy samaradorlik hisoblari keltirilgan.

Olxo'ri moyi sifat ko'rsatkichlarining tekshiruvi O'zTR-724 va GOST-3162-2004 me'yoriy hujjatlarida keltirilgan sinov usullariga muvofiq o'tkazildi. Laboratoriya tekshiruvlarida sovuq (40÷45 °C) va issiq (75÷80 °C) presslash usullarida olingan moylar tarkibidagi og'ir metallar miqdori ham aniqlandi (3-jadval). 3-jadvalda keltirilgan ma'lumotlar har ikki harorat rejimlarida presslab olingan olxo'ri moyi tarkibida inson salomatligi uchun xavfli bo'lgan qo'rg'oshin, kadmiy, margumush va simob kabi og'ir metall elementlarining yo'qligini tasdiqlaydi.


Olxo'ri moyi namunasining IK-spektroskopik tahlillari Caru-60 (Germaniya) spektrofotometrda o'tkazildi va olingan natijalar maxsus ma'lumotnomalar bo'yicha tekshirib ko'rildi.

### 3-jadval

#### Presslash usulida olingan olxo'ri moyi tarkibidagi og'ir metallar miqdori

| Og'ir metallar | Presslab olingan moyning ko'rsatkichlari |                  |                  |
|----------------|--|------------------|------------------|
|                | O'zTR-724 bo'yicha                       | 40÷45 °C rejimda | 75÷80 °C rejimda |
| Pb             | 0,1 mg/kg, ko'p emas                     | 0                | 0                |
| Cd             | 0,05 mg/kg, ko'p emas                    | 0                | 0                |
| As             | 0,1 mg/kg, ko'p emas                     | 0                | 0                |
| Hg             | 0,03 mg/kg, ko'p emas                    | 0                | 0                |
| Zn             | me'yorlanmagan                           | 0,36±0,09        | 0,29±0,08        |
| Cu             | 0,4 mg/kg, ko'p emas                     | 0,21±0,4         | 0,34±0,08        |
| Fe             | 1,5 mg/kg, ko'p emas                     | 0,12±0,05        | 0,05±0,01        |

O'tkazilgan tahlillar asosida olxo'ri moyi tarkibidagi yog' kislotalarining infraqizil yutilish spektrlari o'rganildi (5-rasm).



5-rasm. Olxo'ri moyining IK-spektri

Olxo'ri moyining IK-spektridagi yutilish chiziqlari quyidagi tebranish chastotalari (sm<sup>-1</sup>) orqali aniqlandi: 3005,63 (C-H), 2922,19÷2852,94 (-CH<sub>2</sub>) kuchli valent tebranish, 1743,62 (-C=O) kuchli valent tebranish, 1654,07 (-C=C-) valent tebranish, 1463,80 (-CH<sub>3</sub>) va 1417,69 (-CH<sub>2</sub>-CO-) deformasion tebranish, 1401,92 (-CH<sub>2</sub>), 1377,26 (C-H) deformasion tebranish, 1236,92 (CH<sub>2</sub>), 1160,36 (C-O),

1030,88÷964,16, 910,18 (-C-C-) va 852,58÷722,20 (-CH<sub>2</sub>) deformatsion tebranish. Ushbu tebranish chastotalari olxo‘ri moyi tarkibini tashkil etuvchi asosiy yog‘ kislotalari - palmitin, stearin, olein va linol tarkibiga kiruvchi funksional guruhlar ekanligi aniqlandi.

Olxo‘ri moyining yog‘ kislotalari tarkibini aniqlash bo‘yicha o‘tkazilgan spektral va miqdoriy tahlillar natijalari quyidagi 4-jadvalda keltirilgan.

**4-jadval**

**Olxo‘ri moyining yog‘ kislotalari tarkibi**

| № | Yog‘ kislotalar             | Moy tarkibidagi miqdori, % |
|---|-----------------------------|----------------------------|
| 1 | Palmitin, 16:0              | 5,91                       |
| 2 | Palmitolein, 16:1           | 1,02                       |
| 3 | Stearin, 18:0               | 1,26                       |
| 4 | Olein, 18:1                 | 74,91                      |
| 5 | Linol, 18:2                 | 16,82                      |
| 6 | Linolin, 18:3               | 0,05                       |
| 7 | Araxin, 20:0                | 0,02                       |
| 8 | To‘yingan yog‘ kislotalar   | 7,19                       |
| 9 | To‘yinmagan yog‘ kislotalar | 92,81                      |

Tahlillar natijalari olxo‘ri moyi tarkibidagi to‘yinmagan yog‘ kislotalar miqdori yuqoriligi (92,81 %) va ular asosan olein (74,91 %), linol (ω-6, 16,82 %) va linolindan (ω-3, 0,05 %) iborat ekanligini ko‘rsatdi. Ushbu to‘yinmagan yog‘ kislotalari miqdorining yuqori bo‘lishi olxo‘ri moyini inson salomatligi uchun foydali ekanligini ko‘rsatadi.





Presslash usulida olingan olxo‘ri moyining asosiy fizik-kimyoviy xossa ko‘rsatkichlari quyidagi 5-jadvalda keltirilgan.

**5-jadval**

**Olxo‘ri moyining fizik-kimyoviy xossa ko‘rsatkichlari**

| №  | Ko‘rsatkichlar nomi                    | O‘lchov birligi        | Ko‘rsatkichlar qiymati |                  |                  |
|----|--|------------------------|------------------------|------------------|------------------|
|    |  |                        | O‘zTR-724 bo‘yicha     | 40÷45 °C rejimda | 75÷80 °C rejimda |
| 1  | Kislota soni                           | KOH/g                  | 4,0                    | 0,81±0,1         | 2,05             |
| 2  | Perekis soni                           | mol O <sub>2</sub> /kg | 10,0                   | 1,12±0,1         | 2,81             |
| 3  | Namlik va uchuvchan moddalar           | %                      | me‘yorlanmagan         | 8,5              | 4,5              |
| 4  | Yod soni                               | J2/100 g               | 91÷105                 | 100              | 101              |
| 5  | Zichligi                               | g/sm <sup>3</sup>      | 0,919÷0,927            | 0,914            | 0,912            |
| 6  | Sovunlanish soni                       | mg KOH/g               | 186÷194                | 192              | 190              |
| 7  | Nur sindirish indeksi, 20 °C haroratda | n <sup>D</sup>         | 1,4740÷1,4780          | 1,4698           | 1,4680           |
| 8  | Rangi:                                 |                        |                        |                  |                  |
|    | - qizil birlikda                       |                        | 0,1÷9,0                | 1,1              | 2,8              |
|    | - sariqda birlikda                     |                        | 0,1÷9,0                | 5,0              | 6,5              |
|    | - ko‘k birlikda                        |                        | 0,1÷9,0                | 0,0              | 0,0              |
| 10 | Energetik qiymati                      | kkal                   | me‘yorlanmagan         | 778,05           | 742,16           |
| 11 | Amigdalin glikozidi                    | %                      | 1,59 %                 |                  |                  |

Quyidagi 6, 7, 8 va 9-raslarda standart namuna sifatida olingan toza amigdalın glikozidi, amigdalından tozalanmagan va tozalanmagan moylar, ekstraksiya jarayonida hosil boʻlgan amigdalınli suv namunalari xromatogrammalari tasvirlangan.



Yuqorida tasvirlangan xromatogrammlar tahlil qililib, o'rganilayotgan har bir namunada amigdalinni yutilish vaqti aniqlandi (6-jadval).

**6-jadval**

**Tekshirilayotgan olxo'ri moyi namunalarida amigdalinni yutilish vaqtlari**

| Yutilish vaqti, min | Amigdalinni standart namunasi | Presslab olingan moy, namuna 1 | Ekstraksiyalab olingan moy, namuna 2 | Amigdalini ekstrakti, namuna 3 |
|---------------------|-------------------------------|--------------------------------|--------------------------------------|--------------------------------|
|                     | 4,88*                         | 4,86                           | 4,87                                 | 4,86                           |
|                     | 4,88                          | 4,86                           | 4,87                                 | 4,86                           |
